

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**SAYFULLAYEV BAURJAN NURUMBETO‘G‘LI**

**O‘ZBEK VA QOZOQ TILLARI KONTAKTINING BADIY  
ADABIYOTDAGI XUSUSIYATLARI  
(O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QOZOQ ADIBLARI ASARLARI  
MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va  
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) in  
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Sayfullayev Baurjan Nurumbeto‘g‘li**

O‘zbek va qozoq tillari kontaktining badiiy adabiyotdagi xususiyatlari  
(O‘zbekiston Respublikasi qozoq adiblari asarlari misolida).....3

**Sayfullayev Baurzhan Nurumbetovich**

Features of the contact of the Uzbek and Kazakh languages in fiction (as an example  
of the works of Kazakh writers of the Republic of Uzbekistan)..... 25

**Сайфуллаев Бауыржан Нурумбетович**

Особенности контакта узбекского и казахского языков в художественной  
литературе (на примере произведений казахских писателей Республики  
Узбекистан).....47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works  
Список опубликованных работ..... 56

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**SAYFULLAYEV BAURJAN NURUMBETO‘G‘LI**

**O‘ZBEK VA QOZOQ TILLARI KONTAKTINING BADIY  
ADABIYOTDAGI XUSUSIYATLARI  
(O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QOZOQ ADIBLARI ASARLARI  
MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va  
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3883 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ashirboyev Samixon,**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Mingboyev Nurlan Djakipovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)); e-mail:: [monitoring@www.tsuull.uz](mailto:monitoring@www.tsuull.uz)).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, [www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**Sh.S.Sirojiddinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi  
bir martalik ilmiy kengash raisi, filol.f.d.,  
akademik

**Q.U.Pardayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi  
bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d.,  
professor

**S.E.Normamatov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi  
bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi, filol.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida tillar kontakti masalasiga e'tibor kuchaydi. Ma'lumki, tarixan taqdir bog'lagan tillar va shevalarning rivojlanish xususiyatlari hamda dunyoda aholi migratsiyalarining kuchayishi tillar kontaktiga keng yo'l ochmoqda. Bu muammo kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida yuz berib kelgan, lekin uni ilmiy asosda o'rganish jahonda XIX asrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'ldi. Bu davrda paydo bo'lgan "to'lqin nazariyasi"<sup>1</sup> tillar orasidagi aloqaning tabiiyigini isbotlab bergan edi. Jahon tilshunosligida tillar kontakti turlicha nomlanib keldi. Ular ichida "tillar ittifoqi" tushunchasi mashhur bo'lib, u keyingi davrlarda ham davom etdi. "Tillar kontakti" tushunchasi "tillar ittifoqi" tushunchasini to'raligicha almashtirmasa ham, ularning umumiy xususiyatlarini birlashtira oladi. Bu esa har bir tilshunoslik, shu jumladan, turkologiya oldiga dolzarb masalani keltirib chiqaradiki, bu muammo ushbu tadqiqot ishining asosini tashkil etadi.

Dunyo tilshunosligida tillar kontaktining bir necha turlari qayd qilinadi: tillar kontakti, bilingvizm, so'z o'zlashtirish, interferensiya, substrat va boshqalar. Bu ishda ularni e'tiborga olgan holda, yangi jarayon, ya'ni tarixan bir makonda yashayotgan o'zbek va qozoq xalqlari tillari kontakti natijasida shu xalqlar arealidagi ikki tillilik sharoitida yaratilgan qozoq tilidagi badiiy adabiyotda o'zbek tiliga xos bo'lgan xususiyatlarning aks etishi masalasini o'rganish dolzarbdir. Shuningdek, fanda tillar kontaktiga bag'ishlangan tadqiqotlarning natijasi bo'lgan matnlar leksik-semantik, sintaktik-semantik, funksional-uslubiy, kommunikativ-pragmatik va boshqa aspektlarda nazariy tadqiq qilish ham rivojlantirilmoqda. Endilikda tillar kontakti xususiyatlarini nazariy o'rganish<sup>2</sup> bilan birga, uning biz ilgari surayotgan yangi yo'nalishi, ya'ni dialektal zonadagi yetakchi tilning kontaktdagi tilga ta'siri hamda ularning shu arealdan yetishib chiqqan adiblar ijodida qo'llanishiga bag'ishlangan ishlar ham bor<sup>3</sup>, lekin O'zbekiston Respublikasidan yetishib chiqqan va o'zbek shevalari ruhiyatida shakllangan adiblar asarlarida o'zbek tili va uning shevalariga xos xususiyatlaridan foydalanishi masalasi hozirgacha tadqiqot obyekti bo'lmagan. Bu muammo ushbu dissertatsion ishning *dolzarb* masalasi sifatida qaralmoqda va u O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qo'yayotgan til siyosatiga monand amalga oshirilmoqda.

Mustaqillik davrida jahon tillari va shevalarining hozirgi taraqqiyot tarzi unga nisbatan yangi yo'nalishlarda tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo qilmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Toshkent, Buxoro, Navoiy, Jizzax viloyatlarida o'zbeklar bilan yonma-yon, aralash holda qozoq xalqi vakillari yashaydi. Ularning tili qozoq tili bo'lsa-da, o'zbek tilini kundalik turmushida qo'llay oladilar. Boshqacha aytganda, bilingvizm hukm suradi. Shu arealdan qozoq xalqining shoir va yozuvchilari ham yetishib chiqqan. Ular qozoq tilida ijod

<sup>1</sup> Гаджиева Н.З. Проблемы тюркской ареальной лингвистики. – Москва: Наука, 1975. – С. 208.

<sup>2</sup> Бахтирчиева У. М. Художественный билингвизм и особенности русского художественного текста писателя билингва: автореф. ... доктора филол. наук. – Москва, 2005.

<sup>3</sup> Рахимжанов К. Х. Языковые контакты и их отражения в региональной художественной литературе (на материале творчества писателей Павлодарского прииртышья): автореф. ... канд. филол. наук. – Алматы, 2005.

qiladilar, lekin asarlari tilining o'ziga xos xususiyatlari borki, ular shu areal turmush tarzi, mahalliy ishlab chiqarish, siyosiy, madaniy jarayonlar, o'zaro muloqot tufayli o'ziga xos shevalarni, ya'ni o'zbek tilining kuchli ta'siridagi shevalarini hosil qilgan. Bu shevalar qadiman shakllangan bo'lib, mahalliy qozoq xalqi ruhiyatiga singib ketgan. Bu esa mahalliy qozoq adiblari asarlari tilining qozoq adabiy tilidan o'ziga xosligi bilan ajralib turishiga olib kelgan. Albatta, bu kabi jarayonlarni faqat o'zbek-qozoq tillari munosabatida emas, balki dunyoning barcha regionlarida ham qayd qilish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar hamda innovatsion rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Qozoq-o'zbek tillari kontakti qozoq dialektologiyasiga oid ishlarda ham o'rganilgan. Bunday ishlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

G'. Qaliyev va Sh. Saribayevlar "Қазақ диалектологиясы" (1967) darsligida dastlab Janubiy Qozog'iston viloyati va O'zbekiston Respublikasidagi o'zbek tilidan qozoq shevalariga o'tgan so'zlar haqida fikr yuritadi, lekin bunday so'zlarni shu arealdagi qozoq shevalarining o'ziga xosligi sifatida tavsiflaydi, balki ular o'zbek tilidan o'zlashtirilgan deb qaralmagan.

T. Aydarov "Қазақ тілінің лексикалық ерекшеліктері" (1975), "Лингвистикалық география" (1977), "Проблемы диалектной лексикологии и лингвистической географии" (1991) asarlarida Toshkent, Buxoro viloyati qozoq shevalarini o'rganishda va keyingi areal tadqiqotlarida mahalliy qozoqlar shevalaridagi, asosan, o'zbek tiliga (shevalariga) xos leksik o'zlashmalar va ularning semantik o'ziga xosligi to'g'risida ma'lumot beradi.

O. Naqisbekov, I. A. Quttimuratovalar ishlarida ham qozoq shevalariga o‘zbek tilidan o‘tgan so‘zlar tavsiflanadi. Lekin mahalliy qozoq adiblari asarlarida o‘zbek tilidan o‘tgan so‘zlarning qo‘llanishiga bag‘ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq “O‘zbek folklori va shevalarining areal tadqiqi” mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qilgan va ta’lim olgan qozoq adiblari asarlarida o‘zbek tili va dialektlariga oid unsurlarning qo‘llanishini asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tillar kontaktining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zbek-qozoq tillari munosabatidagi xususiyatlari, uning tarixiy ildizlari va nazariy asoslarini tahlil qilish;

O‘zbekiston qozoq adiblarining qaysi til areallari xususiyatlaridan foydalanganligini faktik misollarda ko‘rsatish;

qozoq adiblari asarlaridagi o‘zbek tili unsurlarining doirasini aniqlash;

qozoq adiblari asarlaridagi o‘zlashgan leksik birliklarning semantik guruhlarini belgilash;

qozoq adiblari asarlarida o‘zbek tili so‘zlashuv tilida qo‘llanayotgan fors va arab tillaridan o‘zlashgan so‘zlarning ma’no xususiyatlarini tahlil qilish;

o‘zbek tilidan olingan so‘zlarning asar badiiy qimmatini belgilashdagi o‘rnini ko‘rsatish;

adiblar asarlaridagi o‘zbek va qozoq tillari unsurlari ishtirokida so‘z yasash qolipini aniqlash;

adiblar asarlaridagi o‘zbek tiliga xos grammatik shakllarning aks etishini aniqlash va uni qozoq tili bilan qiyoslash.

**Tadqiqotning obyekti** Mekembay Omarovning “Ай астындағы айналайындар”, To‘legen Aybergenovning “Бір тойым бар”, Saparbek Imanbekovning “Туған жер тынысы” she’riy to‘plamlari, Rahmetulla Rayimqulovning “Қара жорға” romanidagi o‘zbek tili va uning shevalariga xos so‘zlar va grammatik shakllardir.

**Tadqiqotning predmeti** O‘zbekiston Respublikasidagi qozoq adiblari asarlaridagi o‘zlashgan so‘z va grammatik shakllarni lingvistik tahlil qilishdir.

**Tadqiqotning usullari.** Mavzuni yoritishda mazmuniy, qiyosiy, qiyosiy-tarixiy hamda areal tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

qozoq-o‘zbek tillari kontakti natijasida o‘zbek tili xususiyatlarining mahalliy qozoq adiblari asarlarida aks etishi masalasi ilk bor dalillanib, turkiy til vakillari bo‘lgan qozoqlarning o‘zbek tili voqeligida yashashi va uning natijasi o‘laroq qozoq tilli aholi qaysi arealda yashashiga ko‘ra shu yerdagi o‘zbek shevalari, shuningdek,

ularning o‘zbek tilidagi axborot tizimlaridan, badiiy va ilmiy adabiyotlar orqali o‘zbek tiliga xos xususiyatlarning o‘zlashtirilishi jarayonlari ochib berilgan;

qozoq-o‘zbek tillari kontaktini ilmiy asoslash jahon tajribalaridagi nazariyalar asosida amalga oshirilib, bu kontakt jahon amaliyotida e’tirof etilayotgan adstrat darajasida ekanligi belgilangan hamda ishda qozoq tili areallaridagi o‘zbek tili xususiyatlarining mahalliy qozoq adiblari asarlarida aks etishi ijtimoiy, madaniy hayot natijasi ekanligi asoslangan;

qozoq adiblari mahalliy koloritni reallashtirishda faqat o‘zbek shevalari ta’siri bilan chegaralanib qolgan emas, shu bilan birga, o‘zbek tilidagi badiiy va ilmiy adabiyot, vaqtli matbuot va boshqa axborot vositalaridan kundalikda foydalanishlari ularga o‘zbek tili leksik va semantik xususiyatlarini, so‘z yasash, morfemik tizimi va turg‘un birikmalarini ham asarlarida qo‘llashga yo‘l ochganligi ochib berilgan;

mahalliy qozoq adiblari asarlaridagi yerlik qozoqlar nutqida uchraydigan o‘zbek tiliga xos, mahalliy qozoq shevalariga o‘zbek tili orqali o‘tgan forscha va arabcha so‘zlarning qozoq tilidagi ma’nolari aniqlangan o‘zbekcha morfemalar va turg‘un birikmalarining qozoq adabiy tiliga o‘zlashib ketganligi hamda ulardan ba’zilarining faqat badiiy asarning mohiyatini belgilash chog‘ida zaruratan foydalanilgan o‘rinlari farqlab dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasida yashab ijod etayotgan adiblar asarlari tilini o‘rganish til madaniyati, tarixi, etnografiyasi, dialektologiyasi uchun muhim bo‘lgan ilmiy-nazariy ma’lumotlar dalillangan;

bu tadqiqot o‘zbek tili va shevalariga xos xususiyatlarning qozoq adiblari asarlaridagi qo‘llanishi tillar kontakti natijasi ekanligini isbotlashga xizmat qiladi;

qozoq adiblari asarlaridagi o‘zbek tili va u orqali o‘tgan so‘z hamda grammatik shakllar qozoq dialektologiyasi hamda o‘zbek areal lingvistikasi uchun ahamiyatli bo‘lib, ularning nazariy va amaliy boyitilishiga xizmat qiladi;

dissertatsiya ma’lumotlari qozoq adabiyotida kontaktdagi tildan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari va mahalliy koloritni ifoda qilishdagi o‘rnini anglashga ham xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan ilmiy xulosalarning semantik, qiyosiy, qiyosiy-tarixiy tahlillar bilan asoslanganligi va ularning amaliyotga joriy etilganligi, o‘zbek tiliga xos bo‘lgan leksik birliklarning mahalliy adib asarlaridagi ma’nolaridan kelib chiqib yondashilgani hamda amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, o‘zbek tili xususiyatlarining mahalliy qozoq badiiy adabiyotida aks etishini tahlil qilish, shu vaqtgacha monografik planda o‘rganilmagan o‘zbek va qozoq tillari kontakti, uning badiiy adabiyotdagi xususiyatlari to‘g‘risida ilmiy ma’lumot berilishi, natijada o‘zbek dialektologiyasi shu sheva bo‘yicha nazariy ma’lumotlar bilan to‘ldirilish orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qozoq-o‘zbek tillari kontakti bo‘yicha to‘plangan materiallar to‘lalgicha o‘quv jarayoniga tatbiq etilishi, o‘zbek va qozoq

areal lingvistikasida o'ziga xos o'rin tutishi to'g'risida ishonchli material sifatida xizmat qilishi, mavzu doirasida oliy o'quv yurtlari talabalariga maxsus kurs va seminarlar o'tishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbek va qozoq tillari kontaktining badiiy adabiyotdagi xususiyatlari tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qozoq adiblari asarlaridagi o'zbek tilidan o'tgan so'z va grammatik shakllarning badiiylikni ta'minlashdagi o'rni bo'yicha olingan ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazining 2022-2023-yillarda bajarilgan II-4721101717-raqamli "Xizmat ko'rsatish obektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazining 2023-yil 28-dekabrda 1435-son ma'lumotnomasi). Natijada qozoq-o'zbek tillari kontaktini ilmiy asoslash jahon tajribalaridagi nazariyalar asosida amalga oshirilib, bu kontakt jahon amaliyotida e'tirof etilayotgan adstrat darajasida ekanligi belgilangan hamda ishda qozoq tili areallaridagi o'zbek tili xususiyatlarining mahalliy qozoq adiblari asarlarida aks etishi ijtimoiy, madaniy hayot natijasi ekanligiga asos bo'lgan;

qozoq-o'zbek tillari kontakti natijasida o'zbek tili xususiyatlarining mahalliy qozoq adiblari asarlarida aks etishi masalasi ilk bor dalillanib, turkiy til vakillari bo'lgan qozoqlarning o'zbek tili voqeligida yashashi va uning natijasi o'laroq qozoq tilli aholi qaysi arealda yashashiga ko'ra shu erdagi o'zbek shevalari, shuningdek, ularning o'zbek tilidagi axborot tizimlaridan, badiiy va ilmiy adabiyotlar orqali o'zbek tiliga xos xususiyatlarning o'zlashtirilishi jarayonlariga doir ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2019-2022-yillarda bajarilgan A-OT-2019-10. "O'zbek tilida neyningning me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish" nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil, 17-aprelda 04/1-967-son ma'lumotnomasi). Natijada qozoq adiblari asarlaridagi o'zbek tili va u orqali o'tgan so'z hamda grammatik shakllar qozoq dialektologiyasi hamda o'zbek areal lingvistikasi uchun ahamiyatli bo'lib, ularning nazariy va amaliy boyitilishiga hamda kontaktdagi tillardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari va qozoq adabiyotida mahalliy koloritni ifoda qilishdagi o'rnini anglashga xizmat qilgan;

qozoq adiblari mahalliy koloritni reallashtirishda faqat o'zbek shevalari ta'siri bilan chegaralanib qolgan emas, shu bilan birga, o'zbek tilidagi badiiy va ilmiy adabiyot, vaqtli matbuot va boshqa axborot vositalaridan kundalikda foydalanishlari ularga o'zbek tili leksik va semantik xususiyatlarini, so'z yasash, morfemik tizimi va turg'un birikmalarini ham asarlarida qo'llashga doir ilmiy ma'lumotlardan "O'zbekiston" teleradiokanali DMning "Adabiy jarayon", "Арайлы өңір" dasturlarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2024-yil 20-iyundagi 04-36-763-son ma'lumotnomasi). Natijada, qozoq adiblari asarlaridagi o'zbek tili va u orqali o'tgan

soʻz hamda grammatik shakllar ham qozoq dialektologiyasi, ham oʻzbek areal lingvistikasi uchun ahamiyatli boʻlib, ularning nazariy va amaliy boyitilishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6ta xalqaro, 2ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 17ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9ta maqola, jumladan, 4tasi respublika, 5tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, umumiy hajmi 150 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

“**Kirish**” qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “*Tillar kontakti jarayonlarining fanda oʻrganilishi va uning ijtimoiy-madaniy asosi*” ga bagʻishlangan. Birinchi bobning birinchi paragrafi “*Tillar kontaktining ijtimoiy zarurligi va fanda oʻrganilishi*” deb nomlanib, unda tillar kontaktini, uning tarixi va rivojlanishini oʻrgangan tilshunos olimlar U.Vaynrayx, J.Bogana, Y.V.Xapilina, Q.X.Raximjonov, K.Rahmonberdiyev, T.Aydarov tomonidan va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy-nazariy xulosalariga tayanib, tillar kontakti, shu jumladan, oʻzbek va qozoq tillari kontakti, uning badiiy adabiyotdagi xususiyatlari toʻgʻrisida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Dunyoda hech bir til yoʻqki, u boshqa tillar bilan aloqada boʻlmasin. Bunday aloqalar obyektiv reallik boʻlib, u tilshunoslikda doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlarga asos boʻlib kelgan<sup>4</sup> va hamon bu muammo kun tartibidan olinmagan. Bu masala areal lingvistikada yangi mazmunga ega boʻldiki, u bilan maxsus boʻlim – kontaktologiya shugʻullanmoqda, yaʼni aloqadagi til va shevalar kontaktologiya boʻlimining obyekti boʻlib qoldi. Fanda lingvistik kontaktologiyaning turli talqinlari bor. Bu muammo *kontakt lingvistikasiga* xosdir. Kontakt lingvistikasi yoki lingvistik kontaktologiya ham areal lingvistika, ham umumiy tilshunoslikda umumiy muammo sifatida qaraladigan boʻldi. Shundan umumiy tilshunoslik asosan tillar kontakti bilan shugʻullansa, areal lingvistika, yuqorida taʼkidlanganidek, har ikkala lingvistik hodisani, yaʼni tillar kontaktini va shevalar kontaktini tadqiq qiladi.

---

<sup>4</sup> Ashirboyev S. Areal lingvistika. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – B. 66.

Shuni qayd etish lozimki, tillar kontaktining xarakterini U.Vaynrayx quyidagicha talqin qilgan edi:

1) kazual, ya'ni doimiy bo'lmagan, tasodifiy kontakt; bu tillarning muttasil bo'lmagan kontakti tufayli yuz beradi, uning oqibatida u qadar ko'p bo'lmagan so'z o'zlashtiriladi;

2) permanent, ya'ni doimiy va yaqin kontaktlar, ular tillarning intensiv kontaktidir<sup>5</sup>. Qozoq-o'zbek tillarining biz o'rganayotgan arealdagi kontaktini keyingi kontaktlar jumlasiga kiritish mumkin, chunki bu arealdagi qozoq-o'zbek tillari aloqasi qadimiy va doimiydir<sup>6</sup>.

Shuni aytish lozimki, tillarning tashqi tarixiy rivojlanishida tillar kontaktining o'rni alohida. Tillar boshqa tillar, xususan, qo'shni tillar bilan aloqada bo'lganligi uchun turli darajada aralashgan bo'ladi. Uning natijasida, birinchidan, turli xildagi o'zlashmalarni vujudga keltiradi; ikkinchidan, konvergent tillarni hosil qiladi; uchinchidan, tillar assimilyatsiyasiga olib keladi. Tillar kontakti – jamiyat taraqqiyoti bilan bog'langan murakkab va ko'pbosqichli jarayon. Uni yana ham ochiqalaydigan bo'lsak, tillar kontakti ekstralingvistik omillarlar bilan belgilanadi, ya'ni bunda madaniy, iqtisodiy va etnik omillar yetakchi rol o'ynaydi<sup>7</sup>.

O'zbekistondagi o'zbek shevalariga xos mintaqaviy xususiyatlar O'zbekiston qozoqlari nutqida o'z ifodasini topgan va hatto mahalliy qozoq yozuvchilarining asarlarida ham aks etgan.

Ikki xalqning bir arealdagi o'zaro aloqasi ijtimoiy zaruriyat hisoblanadi hamda bu ikki xalqning barcha faoliyatlari sohalarida namoyon bo'ladi: dastlab ularning xo'jalik faoliyatida, so'ng madaniy hayotida va, albatta, tilida ko'rinadi. Qozoqlar va o'zbeklar yashayotgan areallarda kundalik muomala, radio, axborot turlaridan foydalanish, televidenie va ommaviy majlislarning o'zbek tilida olib borilishi hamda o'zbek tilida ish yuritishlar kontaktlarni belgilovchi faktorlar hisoblanadi. Biz uchun ularning til aloqalari muhim bo'lib, bu shunchaki oddiy aloqa emas, balki intralingvistik mohiyatga ega bo'lgan aloqadir.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi *“O'zbekistonlik qozoq adiblari asarlaridagi o'zbek tiliga xos unsurlarining areallari”* deb nomlangan.

O'zbekiston Respublikasining Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Navoiy viloyatlarida qozoqlar g'uj bo'lib yoki o'zbeklar bilan aralash yashaydilar, bu esa o'ziga yarasha tillar kontaktini vujudga keltiradi. Bu viloyatlardagi qozoq shevalarini areal jihatidan o'rgangan T.Aydarov uning atrof shevalari bilan birgalikda 2 arealini ajratadi:

1. Toshkent atrofi qozoq shevalari. Unga Toshkent viloyatining Bo'stonliq, Qibray, Yuqori Chirchiq, Quyi Chirchiq, Oqqo'rg'on, Bo'ka, Piskent, Yangiyo'l, Chinoz aholi joylari; Sirdariyo va Jizzax viloyatining Sirdariyo, Forish, Arnasoy aholi joylari; Turkiston viloyatining Keles, Sariog'och, Chordara, Yettisoy, va boshqalar keltirilgan. Toshkent atrofi qozoq shevalari deganda yana prof. T.Aydarovning bir fikrini inobatga olish zarur bo'ladi, ya'ni T.Aydarov bu

<sup>5</sup> Вайнрайх У. Языковые контакты. – Киев: Вища школа, 1979. – 255 с.

<sup>6</sup> Айдаров Т. Лингвистикалық география. – Алматы: Мектеп, 1977, - Б.144.

<sup>7</sup> Вайнрайх У. Языковые контакты. – Киев. Вища школа, 1979. – 255 с.

shevalarga hozirgi Turkiston viloyati (unda Chimkent viloyati deyilgan) shevalarini ham taalluqli deb hisoblaydi<sup>8</sup>. Bu fikrda jon bor. Haqiqatdan ham hozirgi Turkiston viloyati qozoqlari shevasining alohida xususiyati bor, boisi bu arealda qozoqlar va o'zbeklar aralash yashaydi va bu yerdagi qozoq tilining o'zbek shevalariga va o'zbek shevalarining qozoq tiliga kuchli ta'siri bor.

2. Buxoro qozoqlarining shevasi. Bunga Tomdi, Konimex, Navoiy, Qorako'l, Romiton va Nurotagacha bo'lgan aholi joylarini kiritadi<sup>9</sup>. Bizningcha, bu viloyatda qozoq diasorasining nisbiy til mustaqilligi saqlanadi, lekin maktab-maorif ishlari, axborot tizimlari orqali o'zbek tilining ta'siri bor.

So'zsiz, qozoq adiblari shu areallarning qaysi birida tug'ilgan va ulg'aygan hamda ta'lim olgan bo'lsa, o'sha aralash qozoq shevalarida muomalada bo'lgan, shu tufayli ham bu sheva ularning asarlarida aks etgan.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi "*Qozoq-o'zbek tillari kontakti aks etgan qozoq badiiy asarlari tavsifi*" deb nomlangan. Ushbu paragrafda tadqiqotimizning obyekti bo'lgan O'zbekiston Respublikasida tug'ilib o'sgan adiblar M.Omarov, T.Aybergenov, R.Rayimqulov va S.Imanbekovlarning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi va ushbu mahalliy adiblar asarlarida qozoq-o'zbek arealidagi kundalik turmushda ishlatiladigan so'zlar, region aholisining kasbiy faoliyatida foydalangan so'zlari, arealga xos turli grammatik shakllar bilan birga, kishi ismlari, joy nomlari haqida ma'lumotlar berildi.

Ishning ikkinchi bobi "*Qozoq adiblari asarlaridagi o'zbek tili leksikasining semantik xususiyatlari*" ga bag'ishlangan bo'lib, bunda o'zbek tilidan o'zlashgan so'zlar va so'z shakllari, o'zbek tili orqali fors hamda arab tilidan o'zlashgan so'zlar va so'z shakllari tavsif qilingan.

II bobning "*O'zbek tilidan o'zlashgan so'zlar*" nomli birinchi paragrafida qozoq adiblari ijodida o'zbek tili shevalari, adabiy til va uning tarixiga oid so'zlar semantik guruhlariga ajratilgan holda tavsif qilingan.

O'zbek va qozoq tillari kontakti jarayonida o'zbek tilidan qozoq shevalariga ko'proq mahalliy shevalardan o'tgan. Bu fikrni mahalliy adiblar ijodida bunday so'zlarning qo'llanish miqdorining fors va arab tillari o'zlashmalariga nisbatan aytmoqdamiz. Bizning hisob-kitoblarimizga qaraganda o'zbekcha (turkiy) so'zlar 126ta, fors tili o'zlashmalari 82ta va arab tili o'zlashmalarini 79tani tashkil etadi.

Mahalliy qozoq adiblari ijodidagi kontakt tufayli qozoqlar shevasiga o'zlashgan so'z va so'z shakllarining ikki toifasi to'g'risida fikr yuritimiz. Bular: 1. O'zbek tilidan o'zlashgan so'zlar va so'z shakllari. 2. O'zbek tili orqali fors hamda arab tilidan o'zlashgan so'zlar va so'z shakllari.

O'zbek tilidan o'zlashgan so'zlar, avval aytilganidek, mahalliy qozoq adiblari asarlarida o'zbek tilidan o'zlashgan so'zlar to'rt manba orqali olinganligi asoslandi: 1) o'zbek tili shevalari, so'zlashuv nutqidan o'zlashgan so'zlar. Bunday so'zlar qozoq adiblari ijodida ancha ko'p uchraydi, albatta, bu holat, avval ta'kidlaganimizdek, ularning mahalliy o'zbek aholisi bilan doimiy kontaktining natijasidir. 2) adabiy tildan, ya'ni badiiy adabiyot, ta'lim tizimi jarayonida

<sup>8</sup> Айдаров Т. Қазақ тілінің лексикалық ерекшеліктері. – Алматы: Мектеп, 1975. – Б. 98

<sup>9</sup> Айдаров Т. Лингвистикалық география. – Алматы: Мектеп, 1977, - Б. 45.

o‘zlashgan so‘zlar. To‘g‘ri, badiiy adabiyotdan o‘zlashgan so‘zlar kamchilikni tashkil etadi. Buning boisi qozoqlar o‘zbek adiblarining asarlarini, asosan, tarjimada o‘qiydilar, lekin qozoq adiblarining o‘zbek tilidagi tarixiy va zamonaviy mavzudagi adabiyotlarni o‘z originalida o‘qishi keng ommalashgan. Shuning uchun ham qozoq adiblari bu adabiyot tilidan anchagina so‘zlarni o‘zlashtirganlar; 3) vaqtli matbuot, radio, televidenie va ommaviy majlislar; 4) mahalliy o‘zbeklar bilan turmush tarzining umumiyligi.

Tadqiqotda o‘zbek tilidan o‘zlashgan so‘zlarni quyidagicha mavzui guruhlariga bo‘lib o‘rganildi. Ularning ayrimlarini keltiramiz:

**Qarindosh-urug‘ va shaxsni bildiruvchi so‘zlar.** Bu semantik guruhga oid so‘zlar o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Qozoq adabiyotida milliy an‘analarga xos sof qozoqcha so‘zlarga ko‘p e‘tibor beriladi. Shunga qaramasdan mahalliy shevalar badiiy adabiyotga o‘z ta‘sirini o‘tkazgan:

**таға – тоғ‘а:** *Есімде таға жұртта жүрген кезім.*

*Жал ұстап, тай, құнанды мінгендерім.*

*Қақсайдың ең төріне жетіп алып,*

*Қақ қардың үңгіріне кіргендерім* (СИ 78). Т.Айдаров ham

Toshkent atrofidagi qozoq shevalarida *нағашы* o‘rnida *таға* so‘zi qo‘llanishini qayd qilgan<sup>10</sup>. Aslida qozoq tilida *нағашы* so‘zining qo‘llanish doirasi keng. *Нағашы* so‘zidan mahalliy adiblar ham foydalanishgan: *Жылап қалдым ақ тайлы // Нағашымды көргім кеп* (МО 24).

**ер – ер:** *Егер менің ерім Сейім халықтың қас жауы болса, онда сол халықтың досы кім?* (PP 116). *Иә, сол жігіт болады біздің еріміз* (PP 284). Qozoq tilida *er* so‘zi shaxslarga, ya‘ni jinsni ko‘rsatishda qo‘llanadi, lekin bu so‘zning *jufti halol* ma‘nosi qayd qilinmaydi, balki bu ma‘noda qozoq adabiy tilida uning *күйеу* varianti amalda qo‘llanadi. Bu misolda adib personajning mag‘rurlanishini o‘zbekcha so‘zni qo‘llash orqali hosil qilmoqda va mahalliy koloritni yuzaga keltirmoqda. Aslida adib *күйеу* so‘zidan ham foydalangan o‘rinlari bor.

**Oziq-ovqat va unga aloqador so‘zlar.** Bunday so‘zlardan ham adiblar foydalanishgan. Qozoqlar o‘z taomlarini qadrlaganlar, shunday bo‘lsa-da, mahalliy qozoqlar o‘zbekcha taomlarni ham suyib iste‘mol qilishgan va ularning ifodasi bo‘lgan bunday so‘zlar badiiy asarlarda aks etgan:

**тушпара – chuchvara:** – *Татпап ең дәмін ешбірің*

*Ұяшақ,*

*Ұяң үш бала?*

*Мінеки, сендер кешқұрым*

*Жейсіндер ыстық тушпара* (МО 9). Bu taom

o‘zbek va uyg‘ur xalqlarining sevimli taomlaridan biri ekanligi ayon<sup>11</sup>. Shunisi ma‘lumki, bu taom qozoq xalqida keyingi davrlarda odat bo‘lmoqda.

**қатық – қатіқ:** *Бір көргеннен адам сыры байқалмас,*

*Байқаймын деп бәлкім ешкім айта алмас.*

<sup>10</sup> Айдаров Т. Қазақ тілінің лексикалық ерекшеліктері. – Алматы: Мектеп, 1975. – Б. 127.

<sup>11</sup> Bu taomning qaysi xalq va millatda dastlab paydo bo‘lganligi masalasi boshqa ishda muhokama qilinadi.

*Кей жандар бар ұйып тұрған қатықтай,  
Анау-мынау қозғағанга шайқалмас* (ТА 16). Bu o‘rinda adib qozoq tilidagi *ayron* so‘zini qo‘llay olmas edi, chunki bu so‘z qo‘llansa, mahalliy kolorit buzilar edi.

**Kiyim-kechak nomlari.** Kiyim-kechak nomlarining aksariyati o‘zbek va qozoq xalqlari uchun umumiy bo‘lgan, shunday bo‘lsa-da, adiblar asarlari tilida mahalliy shevalardagi o‘zbek tiliga xos so‘zlar uchraydi:

**сым – shim:** *Ашуыма шын тиін,  
Құлақтары шұнтийып,  
Жынды джинси сым киін*

*Жіптіктей боп сымпыып* (МО 139). Qozoq adabiy tilida *шалбар* so‘zidan foydalaniladi. Bu so‘zni mahalliy adiblar ham qo‘llaganlar: *Зер сала байқап қараған жан осы кезде басына тер сіңіп әбден сауыс боп қатқан қалпақ, үстіне жейдесіз шидам шекпен, бұтына жүннен тоқыған ескі шалбар, аяғына мал терісінен илеп жасаған шоқай киген қарттың тұла бойынан, ішкі дүниесінен гажан бір сырларды ұққан болыр еді* (PP 14).

**Belgi-xususiyat, imkoniyatni anglatuvchi so‘zlar.**

**гөззал – go‘zal:** *Абайша айтсам қалам қас,  
Навоиша айтсам гөззал тым.  
Әзіл-сыр шертіп аралас,*

*Жан-жүйесін қозғалттым* (ТА 300). Adib asarida bu so‘zning o‘zbek tilidagi fonetik qobig‘idan ancha yiroqlashtirilgan. Lekin shu muallifning o‘zi uning **гөзал** (*go‘zal*) variantini ham ishlatadi:

*Көз алмай келем толғанған  
Көзінен теңіз – гөзалдың.  
Ұйқысыз атқан таңдардан,*

*Таң түстес менің көз алдым* (ТА 32). Birinchi misolda “з” undoshining ikkilangan holda qo‘llanishi uni his-hayajon va ehtiros bilan talaffuz qilinishiga ishora qilishi ko‘zda tutilgan bo‘lishi mumkin. Bu so‘zda singarmonizmning buzilishi ham uning qozoq tiliga singishib ketmaganligini ko‘rsatadi. Qozoq tilida uning *сұлу* sinonimi qo‘llanadi.

**Narsa-qurol, taqinchoq, uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlarini ifodalovchi so‘zlar.** Bunday so‘zlar adib asarlarida siyrak uchraydi, mavjudlari ham mahalliy qozoq shevasi vakillari nutqiga o‘zlashib ketmagan.

**көзәйнек – ko‘zoynak:** *Түн қойнынан шартарапқа жол ашқан,  
Жиырма бес! Жұлдыздарға толы аспан.  
Қою шапты, көзәйнексіз ұлылық,*

*Бір қимылы тұлғасына жарасқан* (ТА 48). Qozoq tilida uning *көзілдірік* varianti qo‘llanadi. Adibning *көзәйнек* so‘zini qo‘llashi, albatta, mahalliylikni ifodalash uchundir.

**Payt semali so‘zlar.** Bunday so‘zlar ham siyrak uchraydi, bu qozoq adiblarining qozoq tilidagi umumturkiy payt ma‘noli so‘zlardan unumli foydalanilganligi bilan izohlanadi:

**азан – azon:** *Хан арық барып азанда*

*Құлаштан жүзіп көргемін,  
Тобымнан сірә жазам ба,  
Дәл түсте Бардан кәлдемін (МО 73). Бүгін азаннан бери  
атыңызды талай рет естип, тұла бойым талай дірілдеп еді (PP 303). Qozoq  
tilida bu ma'no таңерте so'zi bilan ifoda qilinadi.*

*шақ – chog': – Жандарың ашып, қабырғаң емес сөгілер,  
Жерің бе осы жеткенше сөзің сөгінер?  
Сарқылдап біздер қайнаған шақта, ыстық су  
Басқаға емес, өз бауырымызға төгілер (МО 104). Шадыман  
болған шақ қайда... (МО 238). Qozoq tilida bu ma'no кез, уақыт kabi so'zlar bilan  
ifoda qilinadi.*

**O'rin semali so'zlar.** Adiblar asarlarida bunday so'zlar ham siyrak uchraydi.

**таман – tomon:** *Аң көрсе малы таманда,*

*Барлығы бітті – тамам да (МО 53). Кейде ол бүлк  
етпей, аласы мол үлкен тана көздерін жұмып, мойнын домбыраның құлағына  
таман әнтек ие түсіп, маужырап та отырды (PP 8). Qozoq so'zlashuv tilida  
таман (tomon) so'zi ishlatilmaydi. To'g'ri, misollardagi har ikkala qo'llanishda  
o'zbek tilidagi kabi yo'nalish tushunchasi aks ettirilgan. Birinchi qo'llanishda  
таман so'zini жақ so'zi bilan, ikkinchi qo'llanishda қарай (qarab) so'zi bilan  
berish imkoniyati bor edi, lekin bunga poetik maqsad yo'l qo'ymas edi, ya'ni  
таманда so'zi тамам да so'z shakliga qofiya qilinganligini e'tiborga olish  
mumkin.*

II bobning ikkinchi paragrafi “Qozoq adiblari asarlaridagi o'zbek tiliga o'zlashgan forsha so'zlar semantikasi” deb nomlangan bo'lib, o'zbek so'zlashuv tilida qo'llanayotgan hamda o'zbek shevalariga o'zlashtirilgan forsha va arabcha so'zlarning qozoq adiblari asarlaridagi semantikasi yoritilgan.

**Shaxs va unga xos so'zlar:**

**мейман – mehmon:** *Адалдық, арыменен нанын тапқан,*

*Халқы бар мейман десе барын шаиқан.*

*Тең болып, барлық ұлттар бағын ашқан (СИ 13).*

Qozoq adabiy tilida uning қонақ varianti asosiy leksik birlik hisoblanadi. Adib “O'zbekiston” mavzusida yozgan she'rida o'zbek milliy ruhiyatini ifoda qilishda qo'noq so'zidan foydalanishni ma'qul ko'rmagan va o'zbek tilidan o'zlashgan мейман so'ziga murojaat qilgan.

**құштар – xushtor:** *Жақсылыққа құштар*

*Бойда жігер, күш бар (МО 91). Bu so'zning fors tilida  
hushdor ekanligi o'zbek tilining izohli lug'atidan ma'lum, o'zbek tiliga xushtor  
(ikkinchi bo'g'in t undoshi bilan boshlanadi) tarzida o'zlashgan, shuning uchun  
mahalliy qozoqlar ham shu variantda talaffuz qiladilar. Adib құштар so'zini  
orzumand ma'nosida qo'llamoqda.*

**Fan, siyosat, tartib-intizomni anglatuvchi so'zlar.** Bu semantik guruhga kiradigan o'zbekcha so'zlarni mahalliy qozoqlar shevasida ko'plab uchratish mumkin:

**гәп – gap:** – *Мұнда бір гәп бар екен* (PP 120). *Бәсе, осында бір гәп бар деп едім-ау* (PP 258). Qozoq tiliga o‘zbek tilidagi *gap* so‘zi va uning boshqa ma’nolari o‘zlashtirilmagan, balki mahalliy qozoq shevalaridagina qayd qilinadi. Bu misollarda *gap* so‘zi muammo ma’nosida qo‘llangan, chunki adibga o‘zbek tilidagi shu ma’nosi zarur bo‘lgan.

**пәрмен – farmon:** *Бар пәрменімен жұлқиды* (PP 82). Bu so‘z ayni ma’noda qo‘llangan emas, balki xalqdagi ma’nosi olingan, ya’ni kuch ma’nosi olingan. Bu so‘z shimoliy o‘zbek va mahalliy shevalarda *bor kuchi bilan* mazmuni *parmaniniñ bariča* iborasi bilan ifoda qilinadi. Aslida ham *farmon* so‘zida kuch, majburlash ma’nosi bor. Qozoq tilida esa bu so‘z tilning fonetik tizimiga bo‘ysundirilganligi bilan farqlanib turibdi.

**Tabiat hodisalari va qush nomlari.** Bunday so‘zlar bolalarga atalgan she’rlarda qayd qilindi.

**антаб – oftob:** – *Жан рахаты –*

*Жаздың ыстық антабын,*

*Қимай тұрсын қу тіршіліктің ақ таңын* (МО 100). Bu so‘zning *anman* varianti ham ishlatilgan:

*Анманта аяласын деп,*

*Бұздым тау жалтыр мұздарын,*

*Мәңгілік сая қалсын деп,*

*Бауыңа балта ұрғыздадым* (ТА 27). Qozoq tilida bu so‘z o‘rnida *kun* so‘zi adabiy me’yor hisoblanadi. Ko‘rinadiki, bu so‘z qozoq tiliga o‘zlashib ketmagan, shuning uchun ham uning yagona orfografik varianti hal qilinmagan.

**Belgi, miqdor, daraja anglatuvchi so‘zlar.** Bu toifaga kiruvchi so‘zlardan unumli foydalangan, chunki bu so‘zlar mahalliy qozoq shevalarida faol qo‘llanib kelmoqda:

**бегене – begona:** *Еиқаиан да колхоз түгілі, бегене біреудің ала жібін аттаған емес* (PP 14). Bu so‘z o‘rnida qozoq tilida *жат* so‘zi qo‘llanadi. Bu so‘zning *yot* varianti o‘zbek tilida ham keng istifoda qilinadi. Mazkur so‘zning individual uslubdagi ma’nosi ham kuzatiladi: *Ол гана емес-ау, Сейитми бейне қазір гана көргендей, тінті оған оқтың-оқтың көзін қадап, тыжырына үнсіз қараумен болды да, кенет қазіргі жұмысына үш қайнаса сорпасы қосылмайтын бірен-саран бегене сұрақтар берді* (PP 9). O‘zbek tilida *begona* so‘zi shaxs, yurt, joy kabi so‘zlarga nisbatan qo‘llanishi ma’lum, lekin “*begona savol*” degan tushunchasi yo‘q. Bu misolda *бегене* so‘zi “suhbatga aloqador bo‘lmagan” degan ma’noni anglatgan.

II bobning “*Qozoq adiblari asarlarida o‘zbek tili orqali o‘zlashgan arabcha so‘zlar semantikasi*” nomli uchinchi paragrafida qozoq adiblari ijodida o‘zbek tilidagi badiiy adabiyot va bevosita mahalliy shevalardan o‘zlashgan arabcha so‘zlar semantikasi talqin qilinadi.

Qozoq tiliga arabcha so‘zlarning kirib kelishi, avvalo, islom dini bilan bog‘liq. Bu fikr diniy tushunchalar bilan bog‘langan, lekin shunday arabcha so‘zlar ham borki, mahalliy qozoqlar shevasiga o‘zbek tilidagi badiiy adabiyot va bevosita mahalliy shevalardan o‘zlashgan. Albatta, bunday so‘zlarning aksariyati qozoq

tilining: Ular ham o‘zbek adabiy tilida va shevalarida hamda qozoqlar yashaydigan arealda qo‘llanishda bo‘lgan.

**Ta‘m, belgi bildiruvchi so‘zlar:**

**əziz – aziz:** *Жўпары жағымды,*

*Арайлы таңым бар.*

*Əziz отанда... (СИ 138).*

*Қандай тәтті, қандай əziz,*

*Жүректен шыққан махаббат. (СИ 149).* Bu so‘zning *gaziz* varianti ham qo‘llangan: *Сен арылттың мұңнан газиз жұртымды (ТА 52).* Bu so‘z jins kategoriyasi ko‘rsatkichi (-a) bilan birga ayol ismi sifatida kelishi adib asarlarida aks etgan: *Бұл гасыр бейне ертегі,*

*Теңі жоқ жыр зой асылы.*

*Əz inilerdiñ erтеңgi*

*Əzizalarдың гасыры (ТА 132).* Ko‘rinadiki, bu so‘zning ikkinchi bo‘g‘inida o‘zbek tilidagi cho‘ziq *i* unlisi kishi ismida tiklanadi. Bu so‘zda ham singarmonizmning buzilishi izoh talabdir. Shuningdek, ushbu so‘zning boshqa adib ijodida *gaziz* varianti ham qo‘llangan: *Замат ойыма gaziz апам түседі (PP 48).* Ko‘rinadiki, mahalliy qozoq adiblari asarlaridagi bu so‘zning orfografik me‘yori hal qilinmagan. So‘z boshidagi *z* undoshining qatnashshi qozoq tilida arabcha **ayn** fonemasining *z* fonemasi bilan berilishi bilan bog‘liq ekanligi ayon.

**xe yetip(лен) – xavotir:** *Келіннің хе yetipленгені дұрыс (PP 214).* Bu misolda o‘zbek tilidagi ma‘nosi aynan olingan. Bu so‘zning murakkab fonetik variantida olinganligini munozara qilish mumkin. Mahalliy qozoqlar singarmonizm qonuniga amal qilishi va bu so‘z *xavotir* variantida talaffuz qilinishi hisobga olinsa, *xe yetip* fonetik variantini izohlash lozim bo‘lib qoladi.

**Shaxs semali so‘zlar:**

**maxallus – taxallus:** *Тахаллусы “Науаи” мен “Фаний” боп*

*Өлеңдері екі тілде жазған (СИ 122).* Bu so‘zning qo‘llanishi adibning o‘zbek mumtoz adabiyotidan xabardor bo‘lganini ko‘rsatadi, lekin bu so‘z qozoq tiliga o‘zlashmagan.

**ibilic – iblis:** *Жалбыр шам ибіліске жұтпаған атына ыза болған Қаранар түсе қап, жаяу бармақшы болды (PP 181).* Bu so‘z mahalliy qozoqlar shevasida bor. Aslida bu so‘z diniy asarlar orqali o‘zlashgan.

**Ijtimoiy holatni anglatuvchi so‘zlar:**

**uzip – vazir:** *Ақыл айтқан, нақыл айтқан талайға,*

*Узип болып, Құсайынға, сарайға (СИ 122).* Bu she‘rda Navoiyning Husayn Boyqaro podshohligida vazir lavozimida faoliyat ko‘rsatganiga ishora qiladi. Qozoq tilida bu ma‘noda *министр* so‘zi qo‘llanadi. Demak, adib Alisher Navoiyning ijtimoiy holatini ko‘rsatish uchun o‘z davri terminidan foydalangan.

**davlat – davlat:** *Құтты болсын мерекең – davlat тілім!...*

*Өзбек тілім – davlat тілім, ардақ тілім (СИ 73).* Davlat so‘zi Qozog‘iston siyosiy tuzumi strukturasi uchramaydi, balki *memleket*

terminidan foydalaniladi, biroq kishi ismlarida *Davlat* tarzida uchraydi. Bu misolda Davlat tilini eslatish maqsadidiga xizmat qilgan.

**Islom diniga oid soʻzlar.** Qozoq xalqi ham islom dinini qabul qilgan va shu munosabat bilan islomga oid arabcha soʻzlar va tushunchalardan foydalanadilar. Bu esa adiblar asarlarida mahalliy xalqdagi arabcha soʻzlar va ularning fonetik oʻzgarishga uchragan variantlaridan foydalanishga yoʻl ochgan:

**allah – olloh:** *Күш берген Аллах далама,  
Өндірмей дәнді қала ма?  
Қылтиып басы көрінді*

*Өткен соң біраз арада* (MO 81). Qozoq tilining diniy adabiyotlarida *allah* soʻzi qoʻllanadi, lekin mahalliy xalq ichida *құдай* soʻzi keng tarqalgan. Soʻzda *h* harfining qoʻllanishi soʻzning etimologik “*hoyi havvaz*”ga ishora qilinyotganligini ham taʼkidlaymiz, lekin bu soʻzning *alla* varianti ham uchraydi:

*Абат болсын, О дүниең,  
Алладан менің сұрарым* (СИ 81).

**мінежат – тупојот:** *Құрбан осылай мінежат етіп ат үстінде дұға оқиды* (PP 59). Gapda ollohga yolvorish maʼnosida kelgan. Adib asarida bu soʻz qozoq tili fonetik xususiyatlariga moslashtirilishiga harakat qilingan, lekin u nihoyasiga yetmagan, yaʼni singarmonizm buzilgan, ammo shu variantda qozoqlar shevasida bor.

**бісмілла – bismillox:** *Бисмиллаҳ демей, Көкең де* (MO 61). Bu soʻz qozoq adabiy tilida *бісмілда* tarzida talaffuz qilinadi. Koʻrinadiki, adib oʻzbek tiliga yaqin fonetik variantni tanlagan.

**Fanga oid soʻzlar.**

**ілім – ilm:** *Ешкімге түспей тұр саям,*

*Алсам да шөлейт ілімін* (MO 68). Bu soʻz qozoq adabiy tilida *ғылым* shaklida ega. Aftidan, *ilm* soʻzini oʻzbek ilmiy adabiyotlari taʼsirida qoʻllagan.

**шер – sheʼr:** *Мен саған бере алмадым қымбат сыйлық,*

*Шерттім тек жүрегімнің шерін күй ғып* (ТА 179).

Qozoq tilida *sheʼr* terminidan foydalanilmaydi, balki *өлең* soʻzi adabiy meʼyor hisoblanadi. Bu soʻzdan badiiylik uchun (*Шерттім-шерін*) foydalanganligi maʼlum boʻlib turibdi.

Dissertatsiyaning III bobi “**Qozoq adiblari asarlarida oʻzbek tili soʻz yasalishi, grammatik shakllar va frazeologizmlarning aks etishi**” deb nomlanadi. Mahalliy adiblar oʻz asarlarida oʻzbek tili yozma adabiyoti va soʻzlashuv tilidagi faqat leksikadan emas, balki yasama, qoʻshma va juft hamda takroriy soʻzlar, soʻz turkumi imkoniyatlari, soʻzning grammatik shakllari, frazeologizmlardan ham unumli foydalanishgan. Ulardan baʼzilari qozoq tilining passiv lugʻat qatlamiga oid boʻlgan va aksariyati uchun oʻzbek soʻzlashuv tili – mahalliy shevalar va qisman adabiy til manba vazifasini bajargan.

**Ot yasalishi.** Mahalliy qozoq adiblari ko'proq qozoq tili so'z yasalish arsenalidan unumli foydalanishgan. Shu tufayli ham o'zbek tiliga xos so'z yasalishi kamroq qayd qilinadi.

**-chi** affiksi variantlari. Ma'lumki, *-chi* affiksi va uning variantlari bilan so'z yasalishi barcha turkiy tillarda keng tarqalgan<sup>12</sup>. Qozoq tilshunosligida uning ikki varianti tilga olinadi<sup>13</sup>. Mahalliy adiblar asarlarida bu affiks orqali yasalgan so'zlarning ayrimlari o'zbek tilidagina qo'llanishi e'tiborga olingan.

**-iii** varianti. Turkiy so'zlarga qo'shilgan:

**temiriii – temirchi:** *Өтініш біздер жасадық*

*Темірші ағай – ұстаға* (MO 38). *Temirchi* degan tushuncha qozoq tilida keyingi davrdagina qo'llanmoqda, ya'ni metaldan qishloq xo'jaligi buyumlarini yasash mahalliy qozoqlar arealidagina tarqalgan.

**-шы** varianti. Turkiy so'zlarga qo'shilgan:

**балташы – boltachi:** – *Ұзынау сапты, әділім,*

*Тегіңе сен де тартасың.*

*Білместір кісі қадірін*

*Көбейін кетті балташым?! (MO 257).* Aslida *boltachi* degan so'z o'zbek tilida ham, qozoq tilida ham yo'q. Uni okkazonal so'z deb qarash mumkin. Bu misolda adib *-шы* affiksining funksiyasidan foydalanib, *temiriii* so'ziga o'xshatma qilgan va badiiylilikni ta'minlagan.

**Murakkab so'z yasalishi.**

**-ық+шы+лық** affiksi:

**пысықшылық – pishiqchilik:** *Пысықшылық кезінде одан да алатыны жоғарыдағыдай төрттен бір, яғни төрт есенің біреуі еді* (PP 152). Albatta, o'zbek tilida ham, qozoq tilida ham bu affiks tarkibidagi har bir morfemani mustaqil affiks deb qarash mumkin emas, balki u yaxlit affiks, chunki har ikkala tilda ham *pishiq, pishiqchi* degan morfema amalda yo'q.

**Sifat yasalishi.**

**-лі/лы** affiksi variantlari.

**-лы** varianti. Albatta, u orqa qator unlili so'zlarga qo'shilgan.

Arabcha so'z asosidan sifat yasalgan:

**ибалы – iboli:** «*Жөн бе, – деп, – кеткен бетімен*»,

*Қақпайды бала бетінен.*

*Сәлем де салар үлкенге,*

*Ибалы бәрі шетінен (MO 17).* Qozoq tilida *iboli* so'zi ma'nosida *ұялишаң* so'zi qo'llanadi.

**-ғы** varianti. Til orqa unlili so'z asoslariga qo'shilgan.

Arabcha so'z asosiga qo'shilgan:

**ақырғы – oxirgi:** *Сүйемін мен, сүйемін мен сендерді,*

*Алар демім қалғанынша ақырғы* (TA 7). Qozoq tilida bu so'z o'rnida *соңы* so'zi adabiy til fakti hisoblanadi. Mahalliy qozoqlar shevasiga esa

<sup>12</sup> Серебренников Б.А., Гаджиева Н.З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. – М.: Наука, 1986. – С. 99.

<sup>13</sup> Ысқақов А. Қазіргі қазақ тілі. – Алматы: Ана тілі, 1991. – Б.150.

*ақырғы* so‘zi xosdir, singarmonizimli o‘zbek shevalarida ham *axiryi* variantida qo‘llanishda bor.

**-сыз** affiksi:

**тағатсыз – тоқатсиз:** *Тағатсыз аңсар ынтық үн,*

*Жаралы хал зой гашық хал* (ТА 106). Bu

affiksning sifat yasovchiligi to‘g‘risida qozoq tilshunosligidan ma‘lumot uchratmadik.

